# UMUMTA’LIM MAKTABINING O‘QUV ISHLARINI REJALASHTIRISH, VOLEYBOL SEKSIYASINING MAQSAD VA VAZIFALARI

***Sulaymonov Jaxongir Solijonovich***

*O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti Farg‘ona filiali “Sport o‘yinlari nazariyasi va uslubiyati kafedrsi” assisent o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada universitet maktabi doirasidagi ta'lim faoliyatini kompleks rejalashtirish, ayniqsa, voleybol bo'limining maqsad va vazifalariga e'tibor qaratiladi. Ta'lim sinfdan tashqarida ham, har tomonlama rivojlanishda muhim rol o'ynaydigan sport kabi darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'z ichiga oladi. Voleybol jamoaviy sport turi sifatida jismoniy tayyorgarlik, jamoaviy ish, intizom va xarakterni shakllantirish nuqtai nazaridan ko'plab afzalliklarni beradi.

**Kalit so‘zlar:** voleybol, seksiya, dastur, o‘quv fan, jismoniy, rejalashtirish, maqsad, vazifa, ta’lim-tarbiya, dasturiy vosita.

**Mavzuning dolzarbligi**: Jismoniy madaniyat fani darsi o‘quv ishlarining asosiy mashg‘ulot shakli hisoblanadai. Uni rejali amalga oshirish darsning samardorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Rejalashtirish texnologiyasini to‘g‘ri tanlash va uni ishlab chiqishning mazmuni muhim omillaridan biri bo‘lib, belgilangan maqsad va vazifalarni aniq va puxta bajarish imkonini beradi. Jismoniy tarbiya ta’limi jarayonini rejalashtirishda yuzakilikka yo‘l qo‘yish, nomigagina, faqat tekshiruvchilarga taqdim etish uchun kerak bo‘ladigan hujjatlarni tuzish, ta’lim-tarbiya jarayonining muvaffaqiyati uchun hizmat qilmaydi, ta’lim jarayonida o‘qitadiganlar bilan o‘qitiladiganlarning munosabatlarida rasmiyatchilikni yuzaga keltiradi. Rejalashtirish o‘qituvchining o‘tgan o‘quv yili davomida (malga oshirgan o‘z ish faoliyati va to‘plagan tajribasini ijodiy tahlili asosida uni nazariy va amaliy innovatsiyalar, yangi mulohazalar bilan boyitib, o‘quv yili uchun vujudga kelgan shart-sharoitlardan kelib chiqib ta’lim jarayoniga lozim bo‘lgan o‘zgartirishlarni kiritish orqali o‘qitish jarayonining yangi loyihalarini, yo‘l xaritasini tuzishdan iborat bo‘lgan ma’sulyatli faoliyatdir**.**

**Mavzuning o‘rganilganligi.** Mavzu bo‘yicha maxsus adabiyotlarni tahlili ko‘rsatdiki, A.A.PuIatov, A.A.PuIatov, Z.B. Boltayev, **Фомин Е.В., Булыкина Л.В, В.В. Рыцарева** jumladan, J.M.Shukurillayev o‘z dissertatsiyasida pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan qator talablarni ishlab chiqish to‘g‘risida fikr yuritgan.

**Tadqiqotning maqsadi:**

- voleybol seksiyasi ishini takomillashtirish va mashg‘ulotlar jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy qilish;

- voleybol seksiyasi ishini tashkillashning asosiy yo‘nalishlarini aniqlash;

- umumta’lim maktablarida voleybol seksiyasi ishini rejalashtirish muammolarini hal qilish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

- elektron ta’lim muhitida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar hamda mobil ilovalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

Jismoniy tarbiya jarayonida voleybol seksiyasi faoliyatidan foydalangan holda uning samarasi va natijalarini oshirish ilmiy – tadqiqod yo‘nalishini dolzarb mavzu vazifasidir.

Tadqiqoddan maqsad, o‘quvchilarni jismoniy tarbiyalash jarayonida o‘tkazilgan voleybol seksiyasi ishining samarasini oshirishga ta’sir qiluvchi ilmiy –metodik me’yor va sharoitlarni yaratishga ko‘maklashish.

Bir – biriga bog‘liq o‘zaro muammolar majmuasini hal qilish va tadqiqodlarning maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

✓ Voleybol o‘yinlarini o‘tkazish bilan uni to‘g‘ri tushuntirish o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlaydi;

✓ Voleybol mashg‘ulotlarini o‘tkazish samaradorligini oshirishga qaratilgan izchil tamoillar uzviyligini ta’minlash;

✓ Voleybol mashg‘ulotlari, ularning murakkabligi va qo‘yilgan maqsadlariga qarab, samarali amalga oshirishning asosiy jixatlarini belgilash.

**Tadqiqotning uslublari:**

- ilmiy, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish va umumlashtirish;
- anketa so‘rovi;
- nazorat sinovlari;
- pedagogik tajribalar;
- ma’lumotlarning statistik tahlili.

**Natijalar tahlili:**

- ta’lim muhitida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanishda ishlab chiqilgan hamda taklif qilingan uslublarni takomillashtirish;

- pedagogik dasturiy vositalar orqali voleybol sport seksiyasining me’yoriy dasturini maktab ta’lim muassasalari o‘quv jarayonida foydalaniladigan ta’lim resurslari to‘plami sifatida shakllantirilgan;

Xulosa qilib shuni aytish joizki, belgilangan kontingentga mo‘ljallab tuzilgan rejalar vositasida o‘quv-tarbiya jarayonini maqsadli tashkillash, o‘qitish metodlarini optimal variantlarini tanlash, aniq maqsad va vazifalarni belgilab, uni hal qilishni nazarda tutishi zarur. Jismoniy tarbiya sohasi bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan ishlanadigan rejalashtirish hujjatlarining ayrim shakllarini maxsus, davlat ta’lim muassasalari tomonidan tavsiya kilinishi ham mumkin. Lekin, ularga joiz bo‘lsa belgilangan darajadagi o‘zgartirishlar qilishga ruhsat berilishi zaruriyatdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Boltayev Z.B. Voleybol nazariyasi va uslubiyati. O‘zDJTU va turdosh oliy o‘quv yurtlarining sport faoliyati yo‘nalishi uchun darslik. 2019. - 380b.

2. Voleyboi nazariyasi va uslubiyati: darslik. A.A.PuIatov. Toshkent. «O‘zkitobsàvdonashriyoti», 2020. - 448 b.

3. Tohirjonovich, Arabboyev Qahramon. "THE ROLE OF PHYSICAL CULTURE AND SPORTS IN STUDENT ACTIVITY AND LIFESTYLE." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.09 (2023): 58-63.

4.Jurayev, Vohidjon. "SPORTCHINING FAOLIYAT SAMARADORLIGIDA DA’VOGARLIK DARAJASI AHAMIYATINI EMPIRIK NATIJALARI TAHLILI." Science and innovation in the education system 2.7 (2023): 106-112.

5. Араббоев, Қ. Т. "Жисмоний тарбия дарсларида талабалар ўкув-спорт фаоллигини оширишда шахсга йўналтирилган таълим турларининг ўрни." Фан-спортга Учредители: Узбекский государственный университет физической культуры и спорта 6: 68-71.

6. Muratova, Gulnara Rashitovna. "PEDAGOGICAL TECHNOLOGY OF PHYSICAL EDUCATION FOR STUDENTS BASED ON THE POSSIBILITY OF AEROBICS." INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION". Vol. 3. No. 1. 2024.

7. Rashitovna, Muratova Gulnara, and Atadjanov Asadbek Baxtiyor o'g'li. "IMPLEMENTATION OF NEW TECHNOLOGIES IN THE AEROBICS PROGRAM FOR FEMALE STUDENTS OF HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS." INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE &

INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 13.01 (2024): 38-41.

8.Muratova, G. R. "MODERN REQUIREMENTS FOR THE CREATION OF EDUCATIONAL PUBLICATIONS ON PHYSICAL EDUCATION FOR SECONDARY SCHOOLS." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.5 (2023): 1-4.